



The origins of the Nagorno-Karabakh conflict and some approaches to its resolution

Bakhtiyor ERGASHEV¹, Kodir JURAEV²

University of World Economy and Diplomacy

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025

Received in revised form

15 May 2025

Accepted 25 May 2025

Available online

15 June 2025

Keywords:

Nagorno-Karabakh,
Republics of Azerbaijan and
Armenia,
Former Soviet Union,
South Caucasus,
Minsk Group,
First and Second Karabakh
Wars, Russian Federation,
Turkey.

ABSTRACT

This study analyzes the historical, ethnic, and geopolitical roots of the ongoing Nagorno-Karabakh conflict between the Republics of Azerbaijan and Armenia and examines its impact on the South Caucasus region. The research work examines the causes of the conflict, the role of international mediation, and regional actors in a new context. The results show the complexity of the conflict and the limitations of different approaches (military, diplomatic, economic). In order to achieve peace, it is important to restore trust between the two peoples and adhere to international law.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss5/S-pp66-71>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Tog'li Qorabog' mojarosining kelib chiqishi sababi va uni yechishdagi ba'zi yondashuvlar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Tog'li Qorabog',
Ozarbayjon va Armaniston
respublikalari,
Sobiq Ittifoq,
Janubiy Kavkaz,
Minsk guruhi,
birinchi va ikkinchi Qorabog'
urushi,
Rossiya federatsiyasi,
Turkiya.

Ushbu tadqiqot Ozarbayjon va Armaniston respublikalari o'tasidagi mavjud Tog'li Qorabog' mojarosining tarixiy, etnik va geosiyosiy ildizlarini tahlil qiladi va uning Janubiy Kavkaz mintaqasidagi ta'sirini o'rganadi. Tadqiqot ishida mojaroning kelib chiqish sababi, xalqaro vositachilik va mintaqaviy aktorlarning roli yangi kontekstda ko'rib chiqiladi. Natijalar mojaroning murakkabligini va turli yondashuvlarning (harbiy, diplomatik, iqtisodiy) cheklovlarini ko'rsatdi. Tinchlikka erishish uchun ikki xalq o'rtasidagi ishonchni tiklash va xalqaro huquq normalariga rioya qilish muhimdir.

¹ Student, University of World Economy and Diplomacy.

² Doctor of Political Sciences, University of World Economy and Diplomacy.

Причины Нагорно-карабахского конфликта и некоторые подходы к его разрешению

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Нагорный Карабах,
Республики Азербайджан
и Армения,
бывший Советский Союз,
Южный Кавказ,
Минская группа,
Первая и Вторая
Карабахские войны,
Российская Федерация,
Турция.

В данном исследовании анализируются исторические, этнические и геополитические корни продолжающегося Нагорно-карабахского конфликта между республиками Азербайджан и Армения, а также изучается его влияние на регион Южного Кавказа. В исследовательской работе рассматриваются истоки конфликта, роль международного посредничества и региональных субъектов в новом контексте. Результаты показали сложность конфликта и ограниченность различных подходов (военного, дипломатического, экономического). Для достижения мира важно восстановить доверие между двумя народами и соблюдать международное право.

KIRISH

Tog'li Qorabog' mojarosi – Janubiy Kavkaz mintaqasidagi eng murakkab va uzoq davom etgan nizolardan biri sifatida xalqaro siyosiy maydonda muhim o'rin tutadi. Armaniston va Ozarbayjon respublikalari o'rtasidagi bu ziddiyat o'nlab yillar davomida nafaqat ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarga, balki butun mintaqaning geosiyosiy barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Ushbu mojarolar tarixga, siyosatga, xalqaro munosabatlarga qiziqqan har bir kishi uchun dolzarb savollar uyg'otadi. Masalan: Tog'li Qorabog' nizosi qanday boshlandi? Uning asosiy sabablari nimada? Bu muammoni hal qilish uchun qanday yondashuvlar mavjud? Ushbu maqola yuqoridagi savollarga ilmiy-ommabop nuqtai nazardan javob berishga harakat qiladi, shu bilan birga talabalar, mutaxassislar va umumiy o'quvchilar uchun qiziqarli va tushunarli tahlil taqdim etadi.

TADQIQOT USULLARI

Tadqiqotning asosiy ob'ekti Tog'li Qorabog' mojarosining tarixiy, etnik, siyosiy va geosiyosiy jihatlarini hisoblanadi. Tahlilga Armaniston va Ozarbayjon respublikalari o'rtasidagi nizo, xususan, Birinchi Qorabog' urushi (1988–1994) va Ikkinchi Qorabog' urushi (2020) vaqtidagi voqealar, shuningdek, xalqaro vositachilik jarayonlari va mintaqaviy davlatlarning (Rossiya, Turkiya, Eron) ta'siri atroflicha o'rganiladi. Tadqiqotda mojarolar ishtirokchilari (Armaniston, Ozarbayjon, Tog'li Qorabog' respublikasi) va ularning pozitsiyalari, shu bilan birga, qochqinlar va etnik guruhlarining demografik xususiyatlari ko'rib chiqildi.

Tadqiqotda sifatli usullar, jumladan, tarixiy-qiyosiy tahlil va hujjatlar tahlili qo'llanildi. Tarixiy-qiyosiy tahlil mojarolar davrlaridagi siyosiy qarorlar va harbiy harakatlarning o'zaro ta'sirini aniqlash uchun ishlatildi. Hujjatlar tahlili orqali xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, ilmiy manbalar va rasmiy bayonotlar tahlil qilindi. Avval nashr qilingan tadqiqotlarda tarixiy kontekst va etnik ziddiyatlarni tahlil qilishda arxiv hujjatlari va suhbatlardan foydalanilgan bo'lib, ushbu tadqiqotda ham shunga o'xshash yondashuv qo'llanildi.

Tadqiqot asosan uch bosqichda olib borildi: Dastlab mojaroning tarixiy ildizlari va sabablarini aniqlashtirishga harakat qilinadi; So'ng xalqaro vositachilik va mintaqaviy o'yinchilarning roli atroflicha o'rganiladi; oxirida tinchlik jarayonlari uchun ijtimoiy va iqtisodiy omillarni baholanadi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari Tog'li Qorabog' mojarosining ko'p qirrali ekanligini ko'rsatdi. Tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki sovet davridagi siyosiy qarorlar (1923-yilda Tog'li Qorabog'ning Ozarbayjon SSR tarkibiga kiritilishi) va etnik ziddiyatlar nizoning asosiy ildizlari ekanligini aniqladi. 1998–1994-yillardagi Birinchi Qorabog' urushi natijasida 30,000 ga yaqin kishi halok bo'ldi, 1 milliondan ortiq odam qochqin maqomiga ega bo'ldi. 2020-yildagi Ikkinchi Qorabog' urushi mojaroda zamonaviy harbiy texnologiyalar, xususan, dronlarning muhim rol o'ynaganini ko'rsatdi.

MUHOKAMA

Tog'li Qorabog' mojarosining kelib chiqishi bir qator tarixiy, etnik va siyosiy omillarga borib taqaladi. 20-asr boshlarida, Sobiq Ittifoq tarkibida Armaniston va Ozarbayjon respublikalari o'rtasida hududiy bahslar kuchaygan. Tog'li Qorabog'da asosan arman millatiga mansub aholi yashagan bo'lsa-da, 1920-yillarda Tog'li Qorabog' Sovet hukumati tomonidan Ozarbayjon SSR tarkibiga avtonom viloyat sifatida kiritildi. Bu qaror keyinchalik kelajakdagi nizolar uchun asosiy zamin yaratdi. 1980-yillarning oxirida, Sobiq Ittifoq parchalanish arafasida turganda, Tog'li Qorabog'dagi arman millatiga mansub aholi o'z hududlarini Armanistonga qo'shishni talab qila boshladilar, bu esa Ozarbayjon bilan keskin ziddiyatlarga olib keldi. 1990-yillarda bu nizo to'laqonli urushga aylandi, natijada minglab odamlar hayotdan ko'z yumdi, yuz minglab odamlar o'z uylarini tark etishga majbur bo'ldi. Mojaroning murakkabligi uning faqat mahalliy emas, balki xalqaro miqyosda ham aks-sado berishidadir. Rossiya, Turkiya, Eron va G'arb davlatlari kabi tashqi kuchlarning manfaatlar to'qnashuvi nizoni yanada chuqurlashtirdi. Masalan, Turkiya Ozarbayjonni ochiq qo'llab-quvvatlasa, Rossiya Federatsiyasi mintaqada o'z geosiyosiy ta'sirini saqlab qolishga intildi. 2020-yilgi Ikkinchi Qorabog' urushi va undan keyingi tinchlik muzokaralari mojaroga yangi o'zgarishlar keltirdi, ammo u hali ham to'liq hal qilinmagan.

Tog'li Qorabog' mojarosining kelib chiqish ildizlari murakkab bo'lib, tarixiy, etnik, siyosiy va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siridan kelib chiqadi. Bu nizo nafaqat Armaniston va Ozarbayjon respublikalari o'rtasidagi hududiy bahs sifatida, balki xalqaro geosiyosiy manfaatlarining to'qnashuvi sifatida ham ko'rib chiqilishi kerak. Mojaroning kelib chiqishini tushunish uchun avvalo uning tarixiy ildizini tahlil qilish zarur. Tog'li Qorabog' hududi Janubiy Kavkaz mintaqasida joylashgan bo'lib, tarixan arman va ozarbayjon xalqlari uchun muhim madaniy va strategik ahamiyatga ega bo'lgan. 19-asrda Rossiya imperiyasi bu mintaqani o'z tarkibiga qo'shib olgach, hudud aholisining etnik tarkibi murakkablasha boshladi. Armanlar mahalliy aholining katta qismini tashkil qilgan bo'lsa-da, ozarbayjonlar va boshqa etnik guruhlar ham bu yerda yashagan. 20-asr boshlarida, ayniqsa 1918–1920-yillarda, Armaniston va Ozarbayjon davlatlari o'rtasida birinchi hududiy to'qnashuvlar yuzaga keldi. Bu davrda ikki xalq o'rtasidagi ziddiyatlar milliy davlatchilik tushunchasining shakllanishi bilan yanada keskinlashdi. Sobiq Ittifoq davrida Tog'li Qorabog' mojarosining asosiy sabablaridan biri sifatida 1923-yilda qabul qilingan siyosiy qaror ko'riladi. Sovet hukumati garchi aholisining aksariyati armanlardan iborat bo'lsa ham, Tog'li Qorabog'ni Ozarbayjon SSR tarkibidagi avtonom viloyat sifatida tashkil etdi. Bu qaror “bo'lib tashla va hukmronlik qil” siyosatining bir ko'rinishi sifatida baholanadi, chunki u mahalliy xalqlar o'rtasida kelishmovchiliklarni saqlab qolishga xizmat qildi. Armanlar bu qarorni adolatsiz deb hisobladi va hududning Armaniston SSRga qo'shilishini talab qila boshladilar. 1960-yillardan boshlab bu talablar

ochiqroqaytila boshlandi, ammo Sovet hukumati tomonidan qat'iy bostirildi. 1980-yillarning oxirida, SSSR ning parchalanish jarayoni boshlanishi bilan, Tog'li Qorabog'dagi ziddiyatlar yangi bosqichga o'tdi. 1988-yilda Tog'li Qorabog' avtonom viloyatining mahalliy arman rahbariyati hududning Armanistonga qo'shilishi to'g'risida qaror qabul qildi. Bu qaror Ozarbayjonda keskin noroziliklarga sabab bo'ldi va ikki tomon o'rtasida zo'ravonliklar boshlandi. 1991-yilda Sobiq Ittifoq parchalangach, nizo to'laqonli urushga aylandi. Birinchi Qorabog' urushi natijasida arman qo'shinlari Tog'li Qorabog'ni va uning atrofidagi yetti tuman (Ag'dam, Kalbajar, Lachin, Fuzuli, Jebail, Zangilon, Qubadli)ni egallab oldi, bu hududlar "Tog'li Qorabog' Respublikasi" deb e'lon qilindi. Ammo bu respublika xalqaro miqyosda deyarli tan olinmadi. Urush natijasida 30 mingga yaqin odam halok bo'ldi, milliondan ortiq odam o'z uylarini tark etdi. 1994-yilda Rossiya Federatsiyasi vositachiligida imzolangan Bishkek sulh bitimi urushni to'xtatdi, ammo nizo hal qilinmadi, faqat "muzlatilgan" holatga o'tdi. 1990-yillardan keyin xalqaro tashkilotlar, xususan, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (OSCE)ning Minsk guruhi tinchlik muzokaralarini olib borishga harakat qildi. Rossiya, AQSh va Fransiya vositachilik qilgan bu guruh turli yechimlar taklif qildi, ammo ularning aksariyati amalga oshmadi. Armaniston hududiy yaxlitlikni saqlashni, Ozarbayjon esa Tog'li Qorabog'ni o'z tarkibida qolishini talab qildi. 2020-yilda Ikkinchi Qorabog' urushi mojaroning yangi bosqichini boshladi. Ozarbayjon, Turkiya tomonidan harbiy va texnologik jihatdan ochiq qo'llab-quvvatlanib, Tog'li Qorabog'ning katta qismini va atrofidagi hududlarni qaytarib oldi. 44 kunlik urush Rossiya Federatsiyasi vositachiligida imzolangan uch tomonlama kelishuv bilan yakunlandi, unga ko'ra Rossiya Federatsiyasi tinchlikparvar kuchlari mintaqada joylashtirildi. Bu kelishuv Ozarbayjon uchun muhim yutuq bo'lsa-da, nizo to'liq hal qilinmadi, chunki Tog'li Qorabog'ning maqomi masalasi ochiq qoldi. Xalqaro ta'sir nuqtai nazaridan, Tog'li Qorabog' mojarosi turli global va mintaqaviy kuchlarning manfaatlar to'qnashuvi maydoniga aylandi. Rossiya Kavkazda o'z ta'sirini saqlab qolishga intildi, Turkiya esa Ozarbayjonni qo'llab-quvvatlash orqali mintaqada pozitsiyasini mustahkamladi. G'arb davlatlari, xususan AQSh va Yevropa Ittifoqi, tinchlik muzokaralarini qo'llab-quvvatlashga harakat qildi, ammo ularning ta'siri cheklangan bo'ldi. Eron ham mojaroda o'z manfaatlarini himoya qilishga urinib, nizoni yanada murakkablashtirdi.

Tog'li Qorabog' mojarosini hal qilish uchun o'nlab yillar davomida turli yondashuvlar sinab ko'rildi, ammo nizo hali ham to'liq bartaraf etilmagan. Xalqaro vositachilik, tinchlik muzokaralari, harbiy yechimlar va mintaqaviy hamkorlik tashabbuslari kabi yondashuvlar muammoni hal qilishda turli darajada samara berdi. Eng muhim yondashuvlardan biri xalqaro tashkilotlar vositachiligidagi tinchlik muzokaralari bo'ldi. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining (OSCE) Minsk guruhi 1992-yildan beri Armaniston va Ozarbayjon respublikalari o'rtasida muzokaralarni olib borib kelmoqda. Rossiya, AQSh va Fransiya vositachiligida qilgan bu guruh "Madrid printsiplari" kabi takliflarni ilgari surdi, unda hududiy yaxlitlik, o'zini o'zi boshqarish va qochqinlarning qaytishi masalalari muhokama qilindi. Biroq, ikki tomonning murosasiz pozitsiyalari – Ozarbayjonning hududiy yaxlitlikni talab qilishi va Armanistonning Tog'li Qorabog' aholisining o'z taqdirini belgilash huquqini himoya qilishi – muzokaralarni ko'pincha chippakka chiqardi. Minsk guruhining vositachiligi qisman tinchlikni saqlashga yordam bergan bo'lsa-da, u nizoni to'liq hal qila olmadi. Ikkinchi muhim yondashuv harbiy yo'l orqali yechim topish edi. 2020-yilgi Ikkinchi

Qorabog' urushi bu yondashuvning yorqin misoli bo'ldi. Ozarbayjon zamonaviy harbiy texnologiyalari, xususan, Turkiyadan olingan dronlar yordamida Tog'li Qorabog'ning katta qismini va atrofidagi hududlarni qaytarib oldi. 2020-yil 10-noyabrdagi uch tomonlama kelishuv (Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon va Armaniston o'rtasida) urushni to'xtatdi va Rossiya tinchlikparvar kuchlarini mintaqaga joylashtirdi. Bu kelishuv Ozarbayjon uchun muhim yutuq bo'ldi, ammo Tog'li Qorabog'ning maqomi masalasi hali ham ochiq bo'lib qolmoqda. Harbiy yechimlar qisqa muddatda hududiy nazoratni o'zgartirishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatli tinchlikni ta'minlashda cheklovlarga ega, chunki ular ko'pincha etnik va ijtimoiy ziddiyatlarni chuqurlashtiradi. Uchinchi yondashuv sifatida mintaqaviy hamkorlik va iqtisodiy integratsiya tashabbuslari ko'rib chiqilmoqda. Masalan, transport yo'laklari, xususan, Zangezur koridori orqali Armaniston, Ozarbayjon va Turkiya o'rtasida iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish taklif qilingan. Bu yondashuv iqtisodiy manfaatlar orqali mintaqada tinchlikka erishishga xizmat qilishi mumkin. Biroq, bu tashabbus siyosiy ishonchsizlik va tarixiy nizolar tufayli sekin amalga oshirilmoqda. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Yevropa Ittifoqi, mintaqada iqtisodiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali hamkorlikni rag'batlantirishga urinmoqda. Yechim yo'llarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan xalqaro hamjamiyatning birgalikdagi harakatlariga va ikki tomonning kelishishga tayyorligiga bog'liq.

XULOSA

Tog'li Qorabog' mojarosi Janubiy Kavkazning eng murakkab va uzoq davom etgan nizolaridan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Mojaroning tarixiy ildizlari, etnik ziddiyatlar, Sovet davridagi siyosiy qarorlar va xalqaro geosiyosiy manfaatlar uning kelib chiqishiga asos bo'ldi. 1990-yillarda boshlangan Birinchi Qorabog' urushi va 2020-yildagi Ikkinchi Qorabog' urushi nizo dinamikasini o'zgartirdi, ammo Tog'li Qorabog'ning maqomi masalasi hali ham ochiq qolmoqda. Xalqaro vositachilik, harbiy yechimlar va mintaqaviy hamkorlik kabi yondashuvlar sinab ko'rildi, lekin ularning har biri o'ziga xos cheklovlarga ega. OSCE Minsk guruhi kabi tashkilotlarning muzokaralari va Rossiya, Turkiya kabi mintaqaviy kuchlarning aralashuvi tinchlik jarayonlariga ta'sir ko'rsatdi, ammo to'liq barqaror yechim topilmadi. Tog'li Qorabog' mojarosini hal qilish uchun kelajakda nafaqat siyosiy muzokaralar, balki ijtimoiy ishonchni tiklash va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish ham muhim bo'ladi. Qochqinlarning qaytishi, etnik guruhlar o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash va xalqaro huquq normalariga rioya qilish tinchlikka erishishning asosiy shartlaridir. Shu bilan birga, mintaqadagi global va mintaqaviy o'yinchilarning manfaatlarini muvozanatlash nizoni yanada murakkablashtiradi. Kelajakdagi tinchlik jarayonlari mintaqadagi xalqlarning birgalikdagi sa'y-harakatlariga va xalqaro hamjamiyatning adolatli yondashuviga bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Broers, L. (2021). Armenia and Azerbaijan: Anatomy of a rivalry. Edinburgh: Edinburgh University Press.
2. Cheterian, V. (2011). War and peace in the Caucasus: Russia's troubled frontier. London: Hurst & Company.
3. Cornell, S. E. (2017). The international politics of the Armenian-Azerbaijani conflict: The original "frozen conflict" and European security. New York, NY: Palgrave Macmillan.

4. Croissant, M. P. (1998). The Armenia-Azerbaijan conflict: Causes and implications. Westport, CT: Praeger Publishers.
5. de Waal, T. (2013). Black garden: Armenia and Azerbaijan through peace and war (2nd ed.). New York, NY: New York University Press.
6. Gressel, G. (2020). Military lessons from Nagorno-Karabakh: The drone age. European Council on Foreign Relations. Retrieved from <https://www.ecfr.eu>
7. Human Rights Watch. (2021). Nagorno-Karabakh: Civilians bear the brunt of conflict. Human Rights Watch Report. Retrieved from <https://www.hrw.org>
8. International Crisis Group. (2019). Digging out of deadlock in Nagorno-Karabakh (Crisis Group Europe Report No. 255). Retrieved from <https://www.crisisgroup.org>
9. Laitin, D. D., & Suny, R. G. (1999). Armenia and Azerbaijan: Thinking a way out of Karabakh. Middle East Policy, 7(1), 145–176.
10. Markedonov, S. (2021). Russia's role in the Nagorno-Karabakh conflict: Opportunities and challenges. Carnegie Moscow Center. Retrieved from <https://carnegiemoscow.org>
11. OSCE. (2020). OSCE Minsk Group: Statement on the Nagorno-Karabakh conflict. Organization for Security and Co-operation in Europe. Retrieved from <https://www.osce.org>
12. Shiriyeu, Z. (2022). Post-conflict reconstruction in the South Caucasus: Economic and political implications. Caucasus Strategic Perspectives.
13. Suny, R. G. (1993). Looking toward Ararat: Armenia in modern history. Bloomington, IN: Indiana University Press.
14. UNHCR. (2020). Global report 2020: The Nagorno-Karabakh displacement crisis. United Nations High Commissioner for Refugees. Retrieved from <https://www.unhcr.org>
15. Zurcher, C. (2007). The post-Soviet wars: Rebellion, ethnic conflict, and nationhood in the Caucasus. New York, NY: New York University Press.